



UDK: 81'362:811.111:811.512.133

Iroda SIDDIKOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: ravsidd@mail.ru
Muxayyo NARTAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

F.f.d Y.Arustamyan taqrizi asosida

SYNONYMIC RELATIONS OF DENTAL TERMS

Annotation

The article discusses the basic issues of the theory of synonymous relations of dental terms, as well as the differences in the notion of this phenomenon in linguistics. Scientific works of scientists on this problem were studied. The analysis was carried out on the material of dental terms.

Key words: Dental terms, synonymous relations, synonymous features, lexical synonymy, modern linguistics, sema.

СИНОНИМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ СТОМАТОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В статье рассматриваются основные вопросы теории синонимических отношений стоматологических терминов, а также определяются различия в понятии этого явления в лингвистике. Были изучены научные работы ученых по этой проблеме. Анализ был проведен на материале стоматологических терминов.

Ключевые слова: Стоматологические термины, синонимические отношения, синонимические особенности, лексическая синонимия, современное языкознание, сема.

STOMATOLOGIK TERMINLARNING SINONIMIK MUNOSABATLARI

Аннотация

Maqolada stomatologik terminlarning sinonimik munosabatlar nazariyasining asosiy masalalari, shuningdek, tilshunoslikda ushbu hodisa tushunchasining farqlarini aniqlashdan iborat. Bu muammo bo'yicha olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Tahlil misol sifatida stomatologik termin yordamida amalga oshirildi.

Kalit so'zlar: Stomatologik terminlar, sinonimik munosabatlar, sinonimik xususiyatlar, leksik sinonimiya, zamonaviy tilshunoslik, sema.

Kirish. Til leksik qatlamining boyishi nafaqat raqamlarda, balki og'zaki nutqda faol foydalanish sababli o'zining yuqori ko'rsatkichiga ega. Tilni kommunikativ va ekspressiv vazifalarini nutqda ifodalash uchun leksik qatlam aniqlik, ifodalilik, so'zlar ma'nolaridagi rang-baranglik va shuningdek, tushunchalardagi farqlarni aniqlash kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi kerak. Tushunchalarni farqlash, fikr va hissiyotlar xilma-xilligini ifodalash zaruriyati sinonimlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Darvoqe, nutqning sarmazmun bo'lishini unda qo'llanilgan so'zlar rang-barangligi yohud sinonimiyasi belgilaydi va shu tariqa tilning qanchalik boy ekanligi aniqlanadi [1]. Haqiqatdan ham nutqning boyligi uning xilma-xilligidadir [2]. U so'zning ko'p ma'noliligi, omonimik, sinonimik xususiyatlari, stilistik usullari orqali aniqlanadi. Ingliz, rus va o'zbek tillarida bir xil ma'noga ega bo'lgan so'zlarni ko'p uchratish mumkin. Aslida so'zning ma'nosini aniqlash kontekst orqali yengil kechadi.

Sinonimlar orqali nutqda ifodalangan tushunchalarning yanada nozik farqlanish xususiyatlari aniqlanib, millat madaniyatining boy tajribasi bilan hamohang tilda mustahkamlanadi. Ma'lumki, leksik sinonimiya hodisasini, mazmun ifodasini tizimli tashkil etish, leksik birliklarning semantik bog'liqligini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Sinonimik xususiyatga ega bo'lgan leksik birliklar vazifasi va mohiyati jihatidan bir xil bo'lgan leksemalar oralig'ida bo'lganligi sababli, o'z ma'nosida qo'llanilmagan. Binobarin, semalar doimo bir-birini to'ldiradigan leksik birliklar sinonimiyasining ikki qutbli, jumladan, mutlaq mazmunan o'xshashlik va mutlaq o'ziga xoslik darajalari orasida joylashgan.

Zamonaviy tilshunoslikda ikki so'z yoki iboraning sinonimik xususiyatini aniqlashda asosan uch xil, jumladan, sinonimik xususiyat so'z ta'rifi yoki ma'no yaqinligiga asoslanish, so'z bilan belgilangan obyektlarning o'ziga xosligi, yoki sinonimiyaga ega so'zlarning kontekstda bir-birini almashtirib qo'llash mumkinligi kabi qarashlar mavjud [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, so'zlarni sinonimik xususiyati til leksik qatlamining boyishiga sabab bo'lsa, terminologiyada bu masalaga salbiy qaralib, terminologiya sohasida

sinonim so'zlar biri ikkinchisining nusxasi hisoblanadi. S. V. Grinevning fikricha, "bir tushunchani bitta termin ifodalashi yoki aksincha bo'lishi kerak" [4], ya'nikim, termin faqat bitta so'z orqali ifodalaniib, bitta ma'no kasb etadi. Shuningdek, L. A. Kapanadze, terminologik birliklarni adabiy tilga xos so'zlar bilan qiyoslab, "sinonim va antonimlar terminlar tizimiga xos bo'lmagan xususiyat ekanligini" ta'kidlagan [5]. Shu o'rinda, Ye. N. Tolikina ham terminlar tizimi doirasida faqat nusxalar uchrashi mumkinligini e'tirof etgan [6]. Holbuki, e'tirof etilgan qarashlarning birortasi ham o'z isbotini topmagan. Darhaqiqat, sinonimik tamoyillar denotativ ma'noga tayanadigan bo'lsa, u holda kontekstda bir-birining o'rnida qo'llanilishi mumkin bo'lgan so'zlar sinonimlardir. Biroq, V.P.Varinaning fikriga ko'ra, "denotativ ma'noga asoslanish sinonimiyani ifodalash tamoyili bo'lolmaydi. Til birliklari umumiy denotat va turli ma'nolarga egaligi bilan sinonimik qatorni tashkil etmaydi". B.V.Gornung esa sinonimlar har qanday kontekstda ham biri ikkinchisining o'rnida almashtirib qo'llanmasligini ta'kidlagan [7]. Demak, ikkita so'zni sinonim sifatida qo'llash uchun quyidagi xususiyatlar ko'rsatilishi kerak: to'liq mos keladigan izohga ega bo'lishi, ya'ni, semantik qatorda bir xil tarjima qilinishi kerak;

semantik faol bir xil vazifani bajaruvchi miqdor jihatdan ham teng muqobillarga egalik; bir xil gap bo'laklariga tegishli bo'lishi kerak.

Shu o'rinda, yuqorida keltirilgan talablarga binoan sinonimlardan stilistik xususiyatlarining mos kelishi talab etilmaydi.

I.V.Arnold sinonimlar deb, "talaffuzi har xil, bir so'z turkumiga tegishli, mustaqil ravishda boshqa so'z va iboralar bilan qo'llanila oladigan, stilistik bo'yoqdorlik va his-tuyg'uning ma'no ifodalarida farq qiluvchi bir yoki bir nechta ma'nodosh" so'zlarni hisoblaydi [8].

Tadqiqot metodologiyasi. So'nggi olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, termin sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan so'zlarga qo'yiladigan talablarga javob bermaganligi sababli, sinonimiya hodisasi terminologiya sohasiga yot bo'lgan tushuncha ekan (D.S.Lotte, 1968; E.Vyuster, 1931). Keyinchalik, sinonimiya hodisasi terminologiya sohasi bilan bog'lab o'rganilganda, sinonimlar bir-biriga bog'liq bo'lgan bir xil shaklga ega termin mazmuniga mos kelishi va aksincha bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Biroq shaklan bir

xil bo'lgan termin bir so'zning ayni o'zi ekanligi va boshqa ma'nolarni ham anglatishini quyida keltirilgan misollarda kuzatishimiz mumkin. Masalan, gum terminiga ingliz tili izohli lug'atida quyidagicha ta'rif keltirilgan: 1) a viscous secretion of some trees and shrubs that hardens on drying but is soluble in water, and from which adhesives and other products are made; quriganida qotib qoladigan, lekin suvda eriydigan, undan yopishtiruvchi moddalar va boshqa mahsulotlar tayyorlanadigan ba'zi daraxt va butalarning yopishqoq ajralmasi; 2) the firm area of flesh around the roots of the teeth in the upper or lower jaw; yuqori yoki pastki jag'dagi tishlarning ildizlari atrofidagi qattiq go'sht maydoni.

Keltirilgan birinchi ma'nosi yopishqoq ajralma/смолистое выделение va ikkinchisi esa milk/десна ma'nosini ifodalagan. Gum leksemasi termin sifatida kimyo va stomatologiya sohalarida qo'llanib, turli ma'nolarga ega. Demak, har bir soha ichida qo'llaniladigan va termin sifatida qabul qilingan so'zlar sinonimiyasi terminologiyaga oid. Masalan, gingiva, gingiva milk/десна termini stomatologiyada ishlatilib, quyidagicha izohga ega:

“Medicine the gum”, ya'ni, “Origin: mid 17th cent.: Latin, ‘gum’” tarzidagi izohdan aniqlandiki, gingiva termini gum leksemasidan shakllangan bo'lib, biologiya, kimyo sohalarida qo'llanadigan ma'nolariga muvofiq.

Stomatologiyada mavjud odatiy kasallik nomi caries/kariyes terminining izohiga nazar solsak:

“decay and crumbling of a tooth or bone”; tish yoki suyakning chirishi va parchalanishi. Caries terminiga ma'nodosh bo'lgan decay so'zining izohlaridan faqat quyidagi ma'nosiga mos keladi:

“the state or process of rotting or decomposition”; chirish yoki parchalanish holati yoki jarayoni.

Caries va decay semalarining har ikkalasi ham stomatologik terminologiyada sinonimik ma'no kasb etadi. Shuningdek, ot so'z turkumiga tegishli bo'lib, kontekstdan tashqarida ko'pma'no'lik xususiyatiga egaligi aniqlandi. Bir soha doirasida qo'llanadigan cap va crown terminlarining sinonimik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan izohlariga e'tiborimizni qaratamiz:

Cap – “an artificial protective covering for a tooth”; tish uchun sun'iy himoya qoplamasi Crown – “an artificial replacement or covering for the upper part of a tooth” tishning ustki qismini sun'iy ravishda almashtirish yoki qoplash – keltirilgan ta'riflar shuni izohlaydiki, har ikkala termin ham stomatologiya terminologiyasida sinonimik ma'noni ifodalaydi.

Tahlil va natijalar. Stomatologiyaga oid terminlarning sinonimik tabiati quyida keltirilgan beshta yo'nalish doirasida aniqlanadi: 1) davolash tadbirlari, jarrohlik; 2) anatomik tarkib; 3) bemorlarda kuzatiladigan kasalliklar, anormallik; 4) davolash usullari va vositalari; 5) biologik vositalari. Stomatologiya sohasida davolash tadbirlari va jarrohlik amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan terminlarda sinonimik holatlar, masalan,

1. radiecotomy-rhyzotomy-radiculectomy-root mputation/ризотомия– ushbu to'rtta so'zdan iborat sinonim-terminlar ikki tilli lug'atlarda quyidagicha ma'no kasb etgan: “jarrohlik amaliyoti: og'riq sindromini yo'q qilish maqsadida orqamiya yoki kranial nervlarning ildizlarini kesish”; surgical procedure: cutting the roots of the spinal cord or cranial nerves in order to eliminate the pain syndrome.

2. periodontology- periodontics/periodontologiya – ikki tarkibli termin sinonimlar quyidagi ma'noni ifodalaydi: “the branch of dentistry concerned with the structures surrounding and supporting the teeth” [8]; tishlarni atrofidagi va ularni quvvatlovchi tuzilmalar bilan shug'ullanadigan stomatologiya bo'limi.

3. displacement – disposition – drift/dreyf – “a continuous slow movement from one place to another” bir joydan ikkinchisiga uzoq vaqt davomida sekin siljish kabi ma'noni anglatib, termin-sinonimlar uchta tarkibdan tashkil topgan.

Ta'kidlash joizki, anatomik tarkibga oid termin-sinonimlar stomatologiya terminologiyasida ko'p uchratish mumkinligiga quyidagi misollar dalil bo'la oladi: 1. pharynx – throat – gullet/глотка/зев/томоq/bo'g'iz – ushbu termin-sinonimlarni rus va o'zbek tillarida ham sinonimlarga egaligini kuzatishimiz mumkin bo'lib, ingliz tili lug'atida quyidagicha izohlangan: “the membrane-lined cavity behind the nose and mouth, connecting them to the oesophagus”; burun va og'iz orqasidagi membrana bilan qoplangan bo'shliq, ularni qizilo'ngach bilan bog'laydi.

2. pellicle – epidermis – membrancuticle/plyonka/pelikula – “the thin layer of a palate covering”; tanglay qoplamining yupqa qatlami.

3. incisor tooth - cutting tooth/резец/kurak tish – “a narrow-edged tooth at the front of the mouth, adapted for cutting. In humans there are four incisors in each jaw”; og'izning old qismidagi ingichka qirrali

tish, kesish uchun moslashtirilgan. Odamlarda har bir jag'da to'rttadan kurak tish bor.

Shuningdek, kasallik, anomaliya va holat bilan bog'liq termin-sinonimlarga quyidagilar misol bo'la oladi:

1. Decay-carries/kariyes – “crumbling of a tooth or bone”;

2. Missing tooth – tooth loss/отсутствующий зуб/tish tushishi – “absence of a tooth in the followed place”;

3. Bone loss-anodontia – hypodontia/anodontiya/ gipodontiya – rus va o'zbek tillarida ham sinonim-terminlarga ega bo'lib, quyidagi ma'noni ifodalagan: “absence of the teeth because they have failed to develop. It is more common for only a few teeth to fail to develop”.

Ingliz tilidagi Periodontitis va Periodontosis terminlarining rus va o'zbek tillaridagi muqobillaridan birinchi farqi shundaki, har ikkala terminida yunon tilidan o'zlashgan, about, around / рядом / yonida ma'nolarini ifodalovchi old qo'shimchasi peri- qo'llanganidir. Holbuki, rus hamda o'zbek tillari stomatologiyasida parodontit va parodontoz terminlari tarkibida ham yunon tilidagi нахождение рядом/yonida joylashgan, ya'ni tishning yonida ma'nolarini ifodalovchi para - old qo'shimcha qo'llanilganligini guvohi bo'lamiz. Izohlarning qiyosiy tahlilidan aniq bo'ldiki, parodontit va periodontitis terminlari bir xil ma'no kasb etadi. Demak, parodontoz va periodontosis terminlarining rus va o'zbek tillari stomatologiyasidagi qo'llanilishida ma'lum farqlar mavjud bo'lib, parodontoz termini rus hamda o'zbek stomatologiya terminologiyasida keng qo'llaniladi. Ingliz stomatologik terminologiyasida esa periodontosis muomaladan chiqqan terminlar sirasiga kirib, ellik yildan ortiq qo'llanilgan va natijada, zamonaviy stomatologiya terminologiyasi foydasini ko'zlab, chronicperiodontitis/хронический пародонтит/surunkali parodontit terminiga almashtirilgan. Terminlar o'rtasidagi farqning yuzaga kelishiga yagona normativ hujjat sifatida xalqaro terminlar klassifikatsiyasini 10-marta ko'rib chiqilishi sabab bo'lgan. Ushbu terminlar klassifikatsiyasida parodont termini mavjud emas. Uning o'rniga periodont termini qo'llanilgan. Parodontoz termini xalqaro klassifikatsiyada stomatologik kasalliklar sirasiga kiritilmagan. Aynan shu sababli, termin-sinonimlarning ingliz, rus va o'zbek tillaridagi qo'llanilishida farqlar kelib chiqqan.

Terminlar sinonimiyasi – stilistik va hissiy bo'yoqdorlik kabi qo'shimcha belgilarni bildirib, bir ma'noni anglatuvchi terminologik birliklarga asoslangan semantik munosabatlar turlaridir. Stomatologiya terminologiyasida sinonimiya hodisasi eng murakkab va ziddiyatli masalalardan hisoblanadi. Tilshunoslarning ta'kidlashicha, semantik jihatdan bir xil ma'no va mazmunga ega terminlar tez-tez uchrab turganligi bois, terminologiya til kabi o'zining sinonimiyasiga ega. Stomatologiya terminologiyasida sinonim-terminlar lingvistik va ekstralingvistik sabablarga muvofiq izohlanadi. Lotin tilining ilmiy sohada ustunligi ekstralingvistik omillardan biridir. Stomatologiya leksikasida tub inglizcha so'zlar bo'lishiga qaramasdan, yunon va lotin tillaridan o'zlashgan terminlar stomatologiya terminologiyasi sinonimiyasining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Stomatologiya terminologiyasida sinonimiya hodisasining mavjudligiga yana bir sabab, ingliz tili leksikasida ming yillik tarixga ega bo'lgan arxaik, ya'ni eskirgan so'zlarning qo'llanilishidir. Bu borada odatiy bo'lgan tibbiy ilmiy-ommabop matnlarda terminlarning zamonaviy lotin va yunon tillarida keng qo'llaniladigan ekvivalentlari o'z ifodasini topgan. Yana shuni ta'kidlash kerakki, stomatologiyaga oid terminlar nafaqat tor doirada, balki boshqa sohalarida ham maxsus ma'noga ega termin sifatida qo'llaniladi. Quyidagi misollar bunga dalil bo'la oladi: mouth (инг.) - pharynx (юнон. лот.); mouth (инг.) - oral (юнон. лот.); illness (инг.) - morbus (юнон. лот.).

Yuqorida keltirilgan misollar shundan dalolat beradiki, turli tillarga tegishli terminlar bir tushunchani ifodalashi mumkin. Biroq, sanab o'tilgan terminlar ilmiy jihatdan qaralganda, tilda sinonimlarga ega emas. Har bir til quyi tizimi, shuningdek, stomatologiyada turli tushunchalarni ifodalashning sinonimik vositalari ishlab chiqiladi. Binobarin, stomatologiya terminologiyasi bilan bog'liq bir qator masalalardan bo'lmish maxsus terminlarni ifodalashda nafaqat sintetik, balki analitik-nominativ birliklardan foydalaniladi. Garchi, ingliz tili stomatologik terminlarining kelib chiqishi yunon va lotin tillariga taalluqli bo'lsada, ular sinonimlar tarkibida qo'llanilib, nafaqat so'z, balki, iboralar orqali ifodalanishi mumkin: oral cavity / полость рта /og'iz bo'shlig'i; anterior crossbite / фронтальный перекрестный прикус (обратное резцовое перекрытие) / old tishlarning kesishishi;

chin cup / подбородочная праща / iyak sopqoni;

coil-spring / винтовая пружина / vintli prujina;

incisor tooth / cutting tooth / резец / kurak tish;

alveolar bone / альвеолярный отросток / tanglay suyagi;

dental fluorosis / флюороз зубов / tish flyuoroz (tish emalining ko'rinishini o'zgarishiga olib keluvchi holat); basal anaesthesia / базальная анестезия / birlamchi anesteziya

Keltirilgan misollardan aniq bo'ladiki, ingliz tilidagi stomatologik termin-iboralar rus va o'zbek tillarida ham birikma shaklida ifodalangan. Rus va o'zbek tillarida berilgan muqobillari ingliz tilidagi tushunchalarni ifodalash bilan birga bir so'z turkumiga mansubligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan misollar shundan dalolat beradiki, turli tillarga tegishli terminlar bir tushunchani ifodalashi mumkin. Biroq, sanab o'tilgan terminlar ilmiy jihatdan qaralganda, tilda sinonimlarga ega emas. Har bir til quyi tizimi, shuningdek, stomatologiyada turli tushunchalarni ifodalashning sinonimik vositalari ishlab chiqiladi.

Xulosa va takliflar. Ta'kidlab o'tish joizki, bir-biriga yaqin ma'nolarni anglatgan, ko'p hollarda biri ikkinchisini o'rmda qo'llanilishi mumkin bo'lgan terminlarning ma'nolari faqatgina kontekstda farqlanishini kuzatamiz. Bunday hollarda kontekst sinonim terminlarning o'ziga xos xususiyatlarini va shu bilan birga boshqalaridan ajralib turadigan farqlarini muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sinonimlar ma'nolarining turiligi kontekst bilan bog'liq bo'lib, ularning aslida mavjud bo'lgan tushunchalar bilan

muvofiqligini shakllantirish sinonim ma'nolariga rang-baranglik bag'ishlaydi. Ayni sinonim ma'nolarida ifodalangan turlilik bir terminni ikkinchisi bilan almashtirib yoki ma'nolarining bir-biriga mos kelishini oldini oladi. Madaniyatlararo muloqot sharoitida shifokor fikrni nutqqa muvofiq ravishda ifodalashda stomatologik termin xususida aniq, batafsil tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, ingliz, rus, o'zbek stomatologiyasiga oid terminlar sinonimik tabiatga ega. Stomatologik terminlar sinonimik munosabatlari konkret-ot so'z turkumi va abstrakt-ot so'z turkumi, bir komponentli va birikmali terminlar orqali ifodalangan.

To'liq sinonimik munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan terminlar lingvistik maqomdagi farqlari, stomatologiya terminologiyasida sinonimik xususiyatlarning mavjudligiga asos bo'la oladi.

Stomatologiyaga oid terminlarning quyidagi belgilari aniqlandi: 1) Sinonim-terminlarning ko'pma'noliligi; 2) Etimologik muvofiqligi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili leksikasida yunon va lotin tillariga oid bo'lgan o'zlashgan terminlarni ko'plab uchratish mumkin bo'lib, bu o'z o'rmda sinonimlarning paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

ADABIYOTLAR

- Otajonova D.B. Inglizcha badiiy matnlarning rus va o'zbek tillaridagi tarjimalarini ortologik tadqiqi: Filol. fan. bo'y. fal. d-ri. ... diss. – T., 2019. – 156 b.
- Головин Б.Н. Основы культуры речи: Учеб. Пособие. – М.: Высш. школа, 1980. – С. 213.
- Апресян Ю.Д. Избранные труды. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1995. – Т.2. Интегральное описание языка и системная лексикография. – С.68.
- Гринёв С.В. Введение в терминологию. – М., 1993. – С. 27.
- Капанадзе Л.А. О понятиях «термин» и «терминология»//Развитие лексики современного русского языка. – М., 1965. – С.35.
- Толикина Е. Н. Синонимы или дублиеты? // Исследования по русской терминологии. – М.: Наука, 1971. – С. 78 - 89.
- Горнунг Б. В. Место лингвистики в системе наук и использование в ней методов других наук // Вопросы языкознания, № 4. – М., 1960. – С. 31-36.
- Апресян Ю.Д. Избранные труды. – Т.1. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. – 2 изд., испр. и доп. – М.: Школа «Языки русской культуры»; Издат. фирма «Вост. Лит.» РАН, 1995. – 472 с.
- ProgramData\ABVYY\Lingvo\15.0\Dic\System\OxfordAmericanDictionaryEnEn.lsd